





O'QUV DASTURI PASPORTI

O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 17-noyabrdagi 291-sonli va 2024-yil 28-martdagi 101-sonli buyruqlari asosida ishlab chiqilib Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Olimlar Kengashining 2024-yil 25 dekabrdagi №46 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026-yil dekabrigacha.

Ta’lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi				
Kafedra/ bo‘lim	Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish				
O‘quv dastur nomi	<i>Sog‘liqni saqlash boshqaruvchilari maktabi. Sog‘liqni saqlash tizimi transformatsiyasi bosqichlari.</i>				
O‘qish turi	Integratsion mavzuli malaka oshirish				
O‘quv dastur muallifi/ mualliflari	Asadov D.A., Xakimov V.A., Saliyev S.				
Siklning umumiy soati	60 kredit				
Siklda dars beradigan o‘qituvchi va trenerlar					
					
Professor, t.f.d. Asadov D.A.	Dotsent, t.f.n. Xakimov V.A. Sikl kuratori	Dotsent, t.f.d. Asadov X.D. – kafedra mudiri	Dotsent, t.f.d. Xamrayev A.K.	Dotsent, t.f.d. Narmuxamedova N.A.	Katta o‘qituvchi, t.f.n. Aripov T.Yu.
					
Katta o‘qituvchi Sadikxadjayeva D.A.	Katta o‘qituvchi Abduraximova S.B.	Katta o‘qituvchi, t.f.n. Agzamov A.A.	Assistent Abbasxanova Sh.N. – amaliyot koordinatori	Dildora Gulyamova WIU in Tashkent Xalqaro modul koordinatori	Alisher Ismailov (PhD) University of Westminster, UK
					
Dr.Sukhrob Saliev Public Health lecturer WIU in Tashkent	Hasan Umarov, PhD in Economist WIU in Tashkent	Dr. Mukhammadfoik Bakhadirov Assistant Professor of Management	Rahman Khan Senior Lecturer in Management WIU in Tashkent	Omonjon Ganiev WIU in Tashkent	Anil Kumar, PhD WIU in Tashkent

		School of Business, ADA University			
Maqsad	O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" O'RQ-788-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda PF-5590 sonli, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli, 2023-yil 9-sentyabrdagi PF-156 sonli, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158 sonli Farmonlari bilan belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan xolda Cog'liqni saqlash vazirligi va uning tasarrufidagi xududiy sog'liqni saqlashni boshqaruv organlari, respublika tibbiyot muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni boshqaruv (menejment), muassasalar faoliyatini tashkillashtirish va taxlil etish, sog'liqni saqlash tizimi rahbar xodimlarining bilimi, mas'uliyati va muloqot madaniyati bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish.				
Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent	Sog'liqni saqlash vazirligi, xududiy sog'liqni saqlashni boshqaruv organlari, tasarrufidagi muassasalarning (respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning xududiy bo'linmalari, respublika miqyosidagi muassasalar, xududiy tibbiyot muassasalari, tuman/shahar tibbiyot birlashmalari, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining xududiy boshqarmalari hamda bo'linmalari) rahbar xodimlari. Shuningdek, kursda sog'liqni saqlash tizimi boshqaruv organlari, davolash-profilaktika muassasalarida rahbarlik lavozimiga tavsiya etilayotgan mutaxassislar, idoraviy tibbiy xizmatlar rahbar xodimlari, nodavlat tibbiyot muassasalari rahbar xodimlari, ta'lim muassasalarini sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlashga oid kafedra, bo'linmalari xodimlari ham ta'lim olishlari mumkin.				
Sikl vazifalari	<u>Tinglovchilarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumot berish:</u> -mamlakat ijtimoiy hayotidagi islohotlar; -sog'liqni saqlash tizimi transformatsiyasi bosqichlari; -sog'liqni saqlash tizimida Davlat fuqarolik xizmati asoslari; -jamoat salomatligi asoslari; -sog'liqni saqlashni boshqarish asoslari; -tibbiy statistika, muassasalar faoliyatini taxlil qilish asoslari; -tibbiyot muassasalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarish asoslari; -tibbiy xizmat sifatini boshqarish asoslari; -sog'liqni saqlashda menejment, nizolarni boshqarish; -sog'liqni saqlash tizimida aloxida xizmatlar; -sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash, ijro intizomi; -tibbiy huquq, muloqot madaniyati; -sog'liqni saqlashni tashkillashtirish, boshqarish va moliyalashtirish bo'yicha ilg'or halqaro tajriba.				
Sikl tarkibi	Modul 1. Mamlakat ijtimoiy hayotidagi islohotlar. Modul 2. Jamoat salomatligi asoslari. Modul 3. Sog'liqni saqlashni boshqarish asoslari. Modul 4. Tibbiy statistika, muassasalar faoliyatini taxlil qilish asoslari. Modul 5. Tibbiyot muassasalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarish asoslari. Modul 6. Tibbiy xizmat sifatini boshqarish asoslari. Modul 7. Sog'liqni saqlashda menejment, nizolarni boshqarish. Modul 8. Sog'liqni saqlash tizimida Davlat fuqarolik xizmati asoslari.				

	Modul 9. Sogʻliqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash, ijro intizomi. Modul 10. Sogʻliqni saqlashni boshqarish va moliyalashtirish boʻyicha ilgʻor halqaro tajriba. Modul 11. Sogʻliqni saqlash vazirligida amaliyot. Yakuniy imtihon, baholash.
Oʻquv bazalari	<u>Asosiy oʻquv bazalar:</u> 1.Toshkent shahri, Parkent koʻchasi, 51 uy. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. “Jamoat salomatligi va sogʻliqni saqlashni boshqarish” kafedrası. Mashgʻulotlar kunduzgi (bevosita), masofaviy tartibda interfaol koʻrinishda olib boriladi. 2.Toshkent shahri, Istiqbol koʻchasi, 12 uy. Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universiteti. Mashgʻulotlar kunduzgi (bevosita), masofaviy tartibda interfaol koʻrinishda olib boriladi. <u>Qoʻshimcha oʻquv bazalar:</u> sogʻliqni saqlash vazirligi tasarrufidagi respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalari, xududiy sogʻliqni saqlashni boshqaruv organlari, xududiy davolash-profilaktika muassasalari. Amaliyot, masofaviy va sayyor mashgʻulotlar oʻtkazish uchun foydalaniladi. <u>Amaliy mashgʻulotlar uchun bazalar:</u> kafedrani ikki tomonlama shartnomalari mavjud davolash-profilaktika muassasalari masofaviy va sayyor mashgʻulotlar oʻtkazish uchun foydalaniladi. <u>Sogʻliqni saqlashni boshqaruv organida amaliyot oʻtash uchun bazalar:</u> Sogʻliqni saqlash vazirligi, tegishli xududiy sogʻliqni saqlash boshqaruv organi tomonidan taʼminlab beriladigan bazalar. Bunda birinchi navbatda bevosita xududiy sogʻliqni saqlash boshqaruv organidan (uning tarkibini oʻrganish va faoliyatida ishtirok etish maqsadida), undan tashqari uning tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalaridan foydalaniladi.



Mashg'ulotlar jarayoni

Амалий машғулотлар жараёни



Toshkentdagi xalqaro Vestminster universitetida mashg'ulotlar jarayoni

